



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 371-375 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTON-XITOY MUNOSABATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI



**Shaxzoda Xasanova,**  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik  
universitetining "Xitoy madaniyati,  
tarihi, iqtisodiyoti, siyosati"  
kafedrasi stajyor o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston-Xitoy munosabatlarining hozirgi holati, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalari hamda keljakda birgalikda amalga oshiriladigan ishlar yoritilgan. Shuningdek ikki mamlakat o'rtasida o'tgan davr mobaynida barcha sohalarda amaliy hamkorlik natijalari va ustuvor sohalarda qilinadigan ishlar qo'lami tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlatlararo munosabatlari, ikki tomonlama hamkorlik, halqaro tashkilotlar, iqtisodiy soha, ijtimoiy-siyosiy soha, madaniy-gumanitar soha, O'zbekiston-Xitoy munosabatlari, strategik sheriklik.

**Abstract:** This article describes the current state of Uzbek-Chinese relations, cooperation in the trade-economic, socio-political and cultural-humanitarian spheres, as well as future joint work. Also, during the past period between the two countries, the results of practical cooperation in all fields and the scope of work to be done in priority areas were analyzed.

**Key words:** Interstate relations, bilateral cooperation, international organizations, economic sphere, socio-political sphere, cultural-humanitarian sphere, Uzbekistan-China relations, strategic partnership.

**Аннотация:** В данной статье описано современное состояние узбекско-китайских отношений, сотрудничество в торгово-экономической, общественно-политической и культурно-гуманитарной сферах, а также будущая совместная работа. Также в ней проанализированы результаты практического сотрудничества между двумя странами во всех сферах за прошедший период и объем работ, которые предстоит провести по приоритетным направлениям.

**Ключевые слова:** Межгосударственные отношения, двустороннее сотрудничество, международные организации, экономическая сфера, социально-политическая сфера, культурно-гуманитарная сфера, узбекско-китайские отношения, стратегическое партнерство.

## Kirish

O'zbekiston-Xitoy munosabatlari ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li davridan davom etib kelmoqda. Xitoy ipaki, qimmatbaho, choy va boshqa mahsulotlar Samarqand va Buxoro kabi qadimiy shaharlar bozorlarida uzoq davr savdo qilingan. Asrlik iqtisodiy aloqalar siyosiy omillar bilan chambarchas boqlangan holda ikki tsivilizatsiyaning muvaffaqiyatli savdosi va harakatlari Xitoy bilan O'zbekiston o'rtaсидаги zamonaviy strategik sheriklikning asosi ishonch va o'zaro tushunish asosida qurilgan.

2023 yil Xitoy va O'zbekiston diplomatik munosabatlar o'rnatilishining 30 yilligini muvaffaqiyatli nishonladi. Ushbu kisqa davr ichida O'zbekiston-Xitoy hamkorligi yaxshi qo'shnichilik, teng huquqiy va o'zaro manfaatli keng hamkorlik tamoyillari asosida izchil rivojlanib bormoqda. Ikki mamlakat ijtimoiy hayotning barcha sohalari – savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-gumanitar sohalardagi ko'p qirrali hamkorlik yuqori sur'atga erishib, ikki tomonlama aloqalarni izchil rivojlantirishni ta'minlamoqda.

## Asosiy qism.

Bugungi kunda kelib 300 yaqin hujjatni tashkil etgan davlatlararo munosabatlarning barcha sohalarini qamrab olgan shartnoma-huquqiy baza yaratilgan. Ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashda 2011 yildan buyon o'tkazilayotgan O'zbekiston-Xitoy hukumatlararo hamkorlik qo'mitasining doimiy asosda o'tkazilayotgan yig'ilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qo'mita doirasida umuman 6 uchrashuv bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, 2017 yil may oyidan boshlab Oliy Majlisning Butunxitoy xalq deputatlari yig'ilishi bilan hamkorligi bo'yicha parlamentlararo guruhi faoliyat yuritmoqda, uning doirasida Parlament rahbarlarining uchrashuvlari tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, vazirliklararo siyosiy maslahatlashuvlar, shuningdek, tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari nizimli o'tqazib kelinmoqda.

Ikki tomonlama kun tartibidan tashqari Xitoy va O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro masalalarda muvofiqlashtirishni sezilarli darajada yaxshilashdi. Tomonlar jahon va mintaqaviy ahamiyatdagi eng dolzarb muammolar bo'yicha pozitsiyalarning yaqinligi va o'xshashligini ko'rsatib, xalqaro maydonda bir-birlarining tashabbuslarini o'zaro qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Xususan, ikki mamlakat ham xavfsizlik, suverenitet va hududiy yaxlitlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'zaro qo'llab quvvatlashmoqda. Bir-birini mustaqil taraqqiyot yo'llarini tanlashda qat'iy qo'llab-quvvatlab, ikki mamlakat boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga rioya qilishmoqda.

O'z navbatida Xitoy va O'zbekiston o'rtaсидаги ko'p tomonlama hamkorlik asosan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Toshkent va Pekin BMT, BRICS plyus kabi boshqa mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning davlat rahbari bo'lisi bilan O'zbekiston-Xitoy hamkorligining yuqori dinamikasi kuzatilib, oliy darajadagi jadal siyosiy muloqot va ikki mamlakat rahbarlari o'rtaсидада amalga oshirilayotgan do'stlik va ishinchli munosabatlar mustahkamlanmoqda.

Shavkat Mirziyoevning 2017 yil may oyida Xitoya birinchi davlat tashrifi O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini rivojlantirishga katta turki bo'lib, ko'plab yo'naliishlarda ken qamrovli aloqalar o'rnatildi. Qishloq xo'jaligi, ta'lim, sanoat, tibbiyot, energetika, transport va kommunikatsiya sohalaridagi turli loyihalar bilan 23 mlrd.

dollardan ortiq mablag'da yuzdan ortiq ikki tomonlama kelishuvlar imzolandi. Tashrifning eng muhim yutuqlaridan biri O'zbekiston Respublikasi bilan XXR o'rtasida Yuqori darajadagi hamkorlik qo'mitasini tashkil etish to'g'risidagi kelishuv bo'lib, ikki tomonlama munosabatlarni tizimli rivojlantirish uchun ishonchli institutsional baza yaratildi. Ikki mamlakat rahbarlari "yashil" iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sog'liqni saqlash, turizm va ta'lif sohasida hamkorlikni kengaytirishga kelishib olishdi.

Shu bilan birga, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Tszinpinning 2022 yil sentyabr oyida O'zbekistonga davlat tashrifi davlatlararo hamkorlikka qo'shimcha to'rtki berdi. Uning yakunlariga ko'ra, ikki davlat rahbarlari mustahkam do'stlik, umumiyl manfaatlar va birgalikda farovonlikka asoslangan yangi davrda har tomonlama strategik sheriklikni yanada mustahkamlash to'g'risida tarixiy qaror qabul qildilar. Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy va investitsiya hamkorligi sohasida bitimlar imzolandi. Hamkorlikni mustahkamlash uchun tomonlarning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi hamkorlik qilishga kelishib olindi. Mazkur loyiha O'zbekiston XXR bilan har tomonlama strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirishga asos bo'lmoqda.

2022 yil sentyabr oyida ShHT Samarqand sammiti doirasida "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" temir yo'li qurilishi yo'naliishi bo'yicha uch tomonlama bitim imzolandi. Ushbu loyihani amaliy amalga oshirish Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Evropa mamlakatlariga yo'lni 900 kilometrga, yuk etkazib berish muddatlarini 7-8 kunga qisqartiradi. Albatta, bu Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekiston bilan o'zaro savdo hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikning yanada ijobiy dinamikasi kuzatilmoxda. Masalan, tomonlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan o'zaro savdoni ko'paytirish, O'zbekistonning ahamiyatli sanoat va infratuzilma loyihalariga Xitoy investitsiyalarini jalg etish, transport-logistika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun keng kulamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga ko'p jihatdan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo sohasini yanada qulay qo'llab-quvvatlash rejimi joriy etilgani xizmat qilmoqda.

Natijada, 2023 yil Xitoy O'zbekistonning etakchi savdo sheriklari ro'yxatida ikkinchi o'rinni egallagan, mamlakatimizning umumiyl tovar ayirboshlashidagi ulushi 18 foizni tashkil etgan. Xitoya O'zbekiston eksporti bosqichma-bosqich kengayib bormoqda, ammo asosiy ulushni xomashyo tovarlari tashkil etmoqda. O'zbekiston eksport mahsulotlarining 20% Xitoya jo'natilmoqda. O'z navbatida mamlakatimizning Xitoy Respublikasidan import qilishning asosiy moddalari – mashina va uskunalar (65%), shuningdek, kimyo mahsulotlari (15%). 2018 yilda mamlakatlar fitosanitariya talablari to'g'risidagi protokollar paketini imzolab, Hitoy bozoriga o'zbek qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat eksportini bosqichma-bosqich oshirish imkonini berdi. Bugungi kunda O'zbekiston bunday mahsulotlarning 17 turini eksport qilishga ruxsat oldi, ayrim turlari bo'yicha esa etakchi o'rinni egalladi. Hususan, O'zbekiston Xitoy bozorida quritilgan uzum etkazib berishda etakchi o'rinda. Xitoy Respublikasi mazkur mahsulotlarning umumiyl import hajmida O'zbekiston ulushi 55 foizni tashkil etadi.

Xitoylik sheriklar bilan birgalikda "Navoiazot" aktsiyadorlik jamiyati negizida PVX, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasini foydalanishga topshirish kabi muhim loyihalar amalga oshirildi. Bir nechta o'rta va kichik GES ishga tushirildi. Xitoy

investitsiyalari yordamida "Huaxin Cement Jizzakh" va "Farg'ona Yasin Qurilish Mollari" tsement zavodlari qurilishi yakunlandi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda Xitoy investitsiyalari ishtirokida 1 ming 750 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Qo'shma korxonalar ham turli sohalar, jumladan, energetika, transport, aloqa, qishloq ho'jaligi, ta'lif va boshqalarni kamrab oladi.

O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini rivojlantirish uchun ko'p asrlardan chuqur to/mirga ega bo'lgan boy madaniy-gumanitar aloqalarning mavjudligi mustahkam asos bo'lmoqda. Buyuk Ipak yo'lidagi muhim transport tarmoqlari bo'lib, O'zbekiston va Xitoy uzoq vaqtida turli madaniyatatlarni o'zaro rivojlantirish va o'zaro boyitishda muhim o'rinn tutdi. Mazkur yo'nalishda ikki xalqning do'stlik va o'zaro tushunish munosabatlarini mustahkamlashga olib keldi. Bugungi kunda "O'zbekiston – Xitoy", "Xitoy – Markaziy Osiyo" do'stlik jamiyati tashkil etilib, faol faoliyat ko'rsatmoqda.

Tomonlarning tilni o'zaro o'rganishdan manfaatdorligi yuqori. Toshkent va Samarqand shahrlarida Konfutsiy institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda har yili mingdan ziyod tinglovchi ta'lif oladi. Xitoy tilini o'rganayotgan yoshlar soni o'sib bormoqda, ularni Xitoy madaniyati, musiqa, raqslar ham qiziqishi yuqori. Mazkur yo'nalishda Xitoy milliy madaniy markazi ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda, u Xitoyda ta'lif olishni istagan o'zbek yoshlariga stipendiya va grant taqdim etishda ko'maklashmoqda.

O'z navbatida 2010 yildan XXR Millatlar markaziy universitetida o'zbek tili bo'limi faoliyat ko'rsata boshladi, 2018 yilda Shanxay xalqaro tadqiqotlar universiteti huzurida "O'zbek tili" mutaxassisligi bo'yicha bakalavriat dasturi ochildi va O'zbek tili va madaniyat markazi tashkil etildi.

Mamlakatlar o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. O'zbekistoning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Farg'ona shaharlaridagi eng boy tarixiy-madaniy merosi va noyob qadimiy arxitektura yodgorligi hitoylik turistlarni mamlakatimizga jalb etmoqda. 2010 yildan boshlab O'zbekistonga Xitoy Respublikasi fuqarolarining guruhiy sayoxatlari uchun sayyohlik mamlakati maqomi berildi, 2017 yilda esa besh yilga mo'ljallangan Turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2021 yilning mart oyidan boshlab Xitoy fuqarolariga nisbatan o'n kunlik vizasiz rejim amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Xitoy Xalq Respublikasi hududida o'zbek sayyohlik brendini ommalashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik Xitoy ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari uchun O'zbekistonga tanishish tashriflari tashkil etildi, O'zbekiston to'g'risidagi roliklar Xitoy kanallarida translyatsiya qilinmoqda, yirik sayyohlik yarmarkalari va ko'rgazmal o'tqazib kelinmoqda. Ko'rيلотган чора-tadbirlar natijasida ohirgii yillarda Xitoy sayyohlarining O'zbekistonga tashrifi sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, ikki mamlakat sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasidagi aloqalar faol rivojlanmoqda. Jumladan, 2021 yil sentyabr oyida COVID-19-ga qarshi O'zbekiston-Xitoy vaktsinalarini birgalikda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

### **Xulosa.**

Yuqorida ko'rsatilgan yutuqlarga qaramasdan, tomonlar erishilgan ishlarni yanada yuqori darajaga olib chiqishga harakat qilishmoqdalar.

Zamonaviy bosqichda O'zbekiston bilan Xitoy o'rta sidagi munosabatlarda ulkan va to'liq amalga oshirilmagan salohiyat mavjud bo'lib, ularni batafsil o'rganish va amalga oshirish talab etilmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, transport infratuzilmasi va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, madaniy-gumanitar aloqalar va mintaqalararo almashinuvlarni chuqurlashtirish, ikki mamlakatni rivojlantirish strategiyalarini o'rganish ustuvor bo'lib qolmoqadi. Jumladan, hamkorlikning eng dolzarb yo'naliшlaridan biri mahsulot etkazib berish sohasidagi xarajatlarni qisqartirishni ko'zda tutuvchi erkin savdo zonalarini tashkil etish, jumladan, tariflar, bojxona, tashish va texnik standartlar bo'lishi kerak.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini Xitoy bozorlariga ko'paytirish, mahsulotlar hosildorlikni oshirish buyicha Hitoy tajribasini o'rganish, qishloq xo'jaligi texnologiyalari almashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Xitoylik sheriklar bilan O'zbekiston sanoatining mavjud tarmoqlarini tsifrlashtirish, katta ma'lumotlarni qayta ishslash va saqlash markazlarini, intellektual qishloq xo'jaligini tashkil etish boshqa muhim yo'naliш bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, o'zaro turistlar okimini oshirish, shuningdek, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishni, shuningdek, xorijiy fuqarolarning mamlakatimiz hududida qulay bo'lishi uchun yaratilayotgan sharoitlarni yanada yahshilash muhim ahamiyat kasb etadi/

Shu tariqa, O'zbekiston-Xitoy munosabatlarining barcha sohalarini rivojlantirish, yangi yo'naliш va har tomonlama strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish kelajakda ikki mamlakatlar rivojlanishiga hizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Президенти Ўзбекистон-Хитой инвестиция форумида иштирок этди (president.uz)
2. Олий Мажлис Конунчилик палатаси (gov.uz)
3. O'zbekiston – Xitoy munosabatlaridagi oxirgi vaziyat (trt.net.tr)
4. Bekmurotov I. O'zbekiston Xitoy manfaatlar mushtarakligi // Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2004. №4
5. Khasanova, S. A. Q. (2022). Analysis of verb phraseological units in chinese. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 280-283.
6. Xaydarov G'ayratbek Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A. O'ZBEKITON VA XITOY SIYOSIY MUNOSABATLARINING BUGUNGI HOLATI, www.oriens.uz, VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947.
7. Shaxzoda, X. The development of story of the XVI XVII century and the specific style of Pu Sungling's work. Academicia an international multidisciplinary research journal. DOI, 10, 2249-7137. 6. Van Shuylin. Xitoy islohotlar yo'lida // Bozor. pul va kredit. -Toshkent, 1999, №3.

